



TIJORAT BANKLARINING HUDUDLARNI KREDITLASH HOLATI TAHLILI

ANALYSIS OF THE REGIONAL LENDING PRACTICES OF COMMERCIAL BANKS

**¹Bo'ribayev Erkinjon
Narbay o'g'li**

¹PhD., Guliston davlat universiteti doktoranti.

G-mail: boribayeverkinjon@gmail.com, ORCID:0009-0003-9113-7423

Annotatsiya Annotation

Uzb. - Mazkur maqolada tijorat banklarining hududlarni kreditlashning nazariy jihatlarini va uning zaruriyati yoritilgan hamda tijorat banklarining hududlarni kreditlash holati viloyatlar kesimida tahlil qilingan. Shuningdek, hududlararo kreditlashni rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Eng. - This article explores the theoretical aspects and the necessity of regional lending by commercial banks. It also analyzes the current state of lending across regions by examining data on a provincial level. Furthermore, the article presents proposals and recommendations for the development of interregional lending.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ kredit, tijorat banki, hududiy iqtisodiyot, iqtisodiyot, bank tizimi.
❖ credit, commercial bank, regional economy, economy, banking system.

Kirish.

Hozirgi kunda tijorat banklari tomonidan hududlarni kreditlashga alohida e'tibor qaratmoqda. Bu, o'z navbatida, hududlar infratuzilmasining yaxshilanishiga va ularning o'zaro muvozanatli rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Mamlakatning barcha hududlariga moliyaviy resurslarni adolatli va maqsadli taqsimlash orqali tijorat banklari hududiy iqtisodiy o'sish va yangi ish o'rinlari yaratish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston hududlarining iqtisodiy rivojlanishiga ko'maklashish maqsadida kreditlash jarayonlari tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirishga, joriy va yangi loyihalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Hududlarga ajratilgan kreditlar miqdorining yildan-yilga o'sib borishi hududlarda ijtimoiy va iqtisodiy

rivojlanishni ta'minlashga ko'maklashadi. Bu jarayonda tijorat banklari tomonidan mahalliy talab va ehtiyojlarga qarab turli loyihalarni moliyalashtirish yo'li bilan hududlarning iqtisodiy taraqqiyoti uchun mustahkam asos yaratib kelinmoqda. Hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish, infratuzilmani takomillashtirish, yangi sanoat va qishloq xo'jaligi loyihalarini amalga oshirish orqali hududlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy muvozanatni ta'minlashga erishilmoqda. Shu bilan birga, kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlari uchun mo'ljallangan kreditlar mahalliy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish tarmoqlarini rivojlantirishga qo'shimcha rag'bat sifatida xizmat qilmoqda. Bu o'z navbatida hudud infratuzilmasi hamda ijtimoiy holatiga ta'sir etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Sh.Abdullayeva kreditlashning nazariy asoslari bilan birga, amaliy jihatlariga ham alohida e'tibor qaratadi. Muallif kredit turlarini, ularning iqtisodiy subyektlarga ta'sirini va tijorat banklarining bu jarayondagi o'rnini batafsil yoritgan [1]. Unga ko'ra, kreditlash samaradorligi nafaqat bank siyosatiga, balki iqtisodiyotdagi umumiy barqarorlik va infratuzilmaning rivojlanganligiga ham bog'liq.

S.Norqobilov kreditlash tizimini tashkil etuvchi elementlar sirasiga kredit siyosati, kredit liniyalari, garov mexanizmlari va monitoring jarayonlari kiradi deb ta'kidlaydi. U kredit mexanizmining samarali ishlashi uchun iqtisodiy va institutsional muhitning muhimligini ta'kidlaydi [2]. Shuningdek, muallif zamonaviy kredit mexanizmlarini joriy etish orqali hududiy iqtisodiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatish mumkinligini qayd etadi.

T.Bobakulov tadqiqotida milliy valyuta kursining barqarorligi masalasini yoritarkan, tijorat banklarining valyuta bozori va kredit siyosati orqali bu jarayonga qanday ta'sir ko'rsatishini tahlil qiladi [3]. Uning fikricha, valyuta kursi beqarorligi kreditlash faolligiga salbiy ta'sir ko'rsatib, bank resurslarining hududlar bo'yicha notekis taqsimlanishiga olib keladi.

Z.Umarova tijorat banklari tomonidan amalga oshiriladigan kredit emissiyasi jarayonlarini tartibga solish muammolarini o'rganadi. U kredit emissiyasi ustidan nazoratni kuchaytirish va uni takomillashtirish bo'yicha takliflar beradi [4]. Muallif fikricha, tartibga solish mexanizmlarining takomillashuvi kredit risklarini kamaytiradi va moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydi.

D.Saidov tijorat banklarining qisqa muddatli kreditlash faoliyatini o'rganib, bu kreditlarning aylanma mablag'ga ehtiyoji yuqori bo'lgan biznes subyektlari uchun dolzarbligini asoslaydi [5]. U kredit tahlili va qaytaruvchanlik mexanizmlarini

takomillashtirish orqali kredit portfeli sifatini oshirish mumkinligini ta'kidlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ilmiy maqolani yozishda tadqiqot olib borishning induksiya va deduksiya, statistik guruhlash, ekspert baholash usullaridan foydalanilgan. Tadqiqotning axborot bazasi bo'lib, banklarning yillik hisobotlari, Bazel qo'mitasining va Xalqaro tiklanish va taraqqiyot bankining metodik ishlanmalari hamda iqtisodchi olimlar va xalqaro ekspertlarning empirik tadqiqotlarining natijalari hisoblanadi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Jamiyatda tovar-pul munosabatlarining shakllanishi kreditlash amaliyotining vujudga kelishi va rivojlanishi uchun asos bo'lib xizmat qilgan. Darhaqiqat, tovar-pul munosabatlari mavjud bo'lgan har qanday ijtimoiy-iqtisodiy tuzumda kredit munosabatlarining paydo bo'lishi, ularning amal qilishi hamda uzluksiz rivojlanib borishi zaruriyatga aylanadi.

Biroq, so'nggi yillarda kredit va ularga hisoblangan foizlarni o'z vaqtida qaytarish, shuningdek kredit ta'minoti bilan bog'liq qator muammolar yuzaga kelmoqda. Bu holat kredit tizimining barqarorligi va samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shu bilan birga, O'zbekiston bank tizimi tomonidan ajratilgan kreditlar hududlar kesimida keng ko'lamda taqsimlanib, ularning dinamikasi hududiy iqtisodiy rivojlanishga sezilarli darajada hissa qo'shayotganini ko'rsatmoqda. Ayniqsa, Toshkent shahri mamlakatning eng yirik moliyaviy markazi sifatida ajralib turadi. Ushbu hududda iqtisodiy faollik yuqori bo'lib, bu kreditlar hajmining keskin o'sishida o'z aksini topgan: 2020-yilda 109 458 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 192 326 mlrd. so'mga yetgan. Bu esa Toshkent shahrining iqtisodiy resurslar taqsimotidagi yetakchi o'rnini yaqqol namoyon etadi.


1-jadval

O'zbekiston bank tizimi tomonidan berilgan kreditlarning hududlar kesimida taqimslanishi va dinamikasi (1-yanvar holatiga, mlrd. so'm) [6]

Hududlar	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y.
Qoraqalpog'iston Respublikasi	6 598	8 007	8 576	11256	16564
Andijon viloyati	8 957	12 116	14 096	15000	18564
Buxoro viloyati	7 894	11 958	15 130	19856	23564
Jizzax viloyati	6 598	9 856	10 782	14569	18478
Qashqadaryo viloyati	7 598	11 038	12 654	15689	25896
Navoiy viloyati	6 589	8 792	9 425	11253	14253
Namangan viloyati	7 895	9 884	11 323	14567	20456
Samarqand viloyati	8 759	15 014	16 040	19568	25364
Surxandaryo viloyati	6 897	11 119	12 682	15690	18697
Sirdaryo viloyati	5 789	7 972	9 662	12164	16507
Toshkent shahar	109 458	132 049	160 896	180236	192326
Toshkent viloyati	12 526	17 162	20 308	25401	32564
Farg'ona viloyati	8 567	12 554	14 087	19564	26548
Xorazm viloyati	7 456	9 454	10 724	15236	21625
Jami	211 581	276 975	326 386	390 049	471 406

1-jadvalda 2020-yildan 2024-yilgacha bo'lgan davrda hududlar kesimida berilgan kreditlar dinamikasi ko'rsatilgan bo'lib, unda har bir hudud bo'yicha ajratilgan kreditlar miqdorining umumiy hajmi aks ettirilgan. Jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, hududlarning aksariyatida ajratilgan kreditlar miqdori muntazam ravishda o'sib bormoqda va bu o'sish hududlarning umumiy iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shuningdek, Toshkent viloyati, Samarqand va Farg'ona viloyatlari kabi hududlar ham sezilarli darajada kredit mablag'laridan foydalanib kelmoqda. Masalan, Samarqand viloyatida 2020-yilda ajratilgan kreditlar hajmi 8,759. mlrd so'm bo'lgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 25,364 mlrd. so'mgacha o'sgan. Bu holat hududning iqtisodiy o'sishga bo'lgan ehtiyojlari va kreditlash imkoniyatlarining kengayishini ko'rsatadi.



1-rasm. O'zbekiston bank tizimi tomonidan ajratilgan kreditlarning hududlar kesimida taqsimlanishi (foizda) [6]

Boshqa hududlarga kelsak, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Namangan viloyati va Jizzax viloyati kabi hududlarda ham kreditlar hajmi yildan-yilga o'sib bormoqda. Jizzax viloyatidagi kreditlash hajmi 2020-yilda 6,598 mlrd. so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 18,478 mlrd. so'mga yetgan. Bu hududlardagi iqtisodiy va tadbirkorlik faoliyatining rag'batlantirilishi hududiy taraqqiyotga hissa qo'shgan.

Jami mamlakat bo'yicha olib qaraganda, 2020-yildagi 211581 mlrd. so'mlik kreditlar hajmi 2024-yilda qariyb ikki barobar oshib, 471406 mlrd. so'mga yetdi. Bu esa O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlashda bank tizimining muhim rolini ko'rsatadi. Hududlarga kreditlarning taqsimlanishi joylashuv, ishlab chiqarish va aholi ehtiyojlariga qarab aniqlanadi. Ushbu mablag'larning katta qismi qurilish, infratuzilma va kichik tadbirkorlik sohalariga yo'naltirilgan bo'lib, hududiy rivojlanish va aholining turmush darajasini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytganda, jadvaldagi ma'lumotlar asosida O'zbekistondagi iqtisodiy rivojlanishning hududiy tendensiyalarini tahlil qilish imkoniyati mavjud. Kelgusida bank tizimi tomonidan ajratilayotgan kreditlarning hududiy va tarmoqlararo taqsimotini yanada chuqurroq o'rganish, ularning o'zaro

uyg'unligini ta'minlash orqali iqtisodiyotning turli sohalarini moliyalashtirish bo'yicha strategiyalarni takomillashtirish zarur bo'ladi.

O'zbekistonda mavjud yuqori foiz stavkalari, asosan, iqtisodiy xavf-xatarlarni kamaytirish hamda moliyaviy barqarorlikni saqlash maqsadida belgilab kelinmoqda. Bu, o'z navbatida, tijorat banklari uchun tavakkalchiliklarni kamaytirish va likvidlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Biroq, foiz stavkalarining yuqoriligi iqtisodiy o'sish sur'atlarini sekinlashtirishi mumkin. MDH mamlakatlari va ayrim rivojlanayotgan davlatlar tajribasida past foiz stavkalari kichik va o'rta biznes subyektlariga, shuningdek, aholiga kredit olish imkoniyatlarini kengaytirish orqali iqtisodiy faollikni rag'batlantirayotgani kuzatilmoqda.

Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston ham zamonaviy moliyaviy siyosatni qo'llab-quvvatlab, foiz stavkalarini iqtisodiy rivojlanish talablariga mos holda optimal darajada ushlab turish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishi maqsadga muvofiqdir.

O'tkazilgan tahlillar va o'rganishlar shuni ko'rsatmoqdaki, tijorat banklari tomonidan beriladigan kreditlarning foiz stavkalari mamlakatdagi bir qator makroiqtisodiy ko'rsatkichlar – xususan, inflyatsiya darajasi, monetizatsiya koeffitsiyenti, shuningdek, Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi kabi omillar bilan bevosita bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullayeva Sh.Z. Kredit va kreditlash amaliyoti. T.: "Iqtisod-Moliya", 2017 y. – 368 b.
2. Norqobilov S.X. Kredit mexanizmi va uning elementlari. Toshkent. 2010. –98 b.
3. Bobakulov T.I. O'zbekiston Respublikasida milliy valyuta kursining barqarorligini ta'minlash borasidagi muammolar va ularni hal qilish yo'llari. I.f.d. ilm. dar. ol. uch. taqd. et. diss. avtoref. – Toshkent, 2008. –13 b.
4. Umarova Z.S. O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari kredit emissiyasini tartibga solishni takomillashtirish. I.f.n. ilm. dar. olish uch. taqd. et. diss. avtoref. – Toshkent, 2011. –14 b.
5. Saidov D.A. Tijorat banklarining qisqa muddatli kreditlash amaliyoti va uni takomillashtirish yo'llari. Iq. f.n. ilm. darajasini olish uchun diss. – Toshkent: BMA, 2008. – 133 b.
6. <https://cbu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy veb-sayti.